

TARG'IBOT VA KISHILAR FAZILATLARI HAMDA QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASI

*Rustamov Ramz Rizoqulovich, Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti
PROPAGANDA AND PERSONAL QUALITIES AND THE
TRANSFORMATION OF VALUES*

*Rustamov Ramz Rizoqulovich, Associate Professor, Karshi State
Technical University*

ПРОПАГАНДА И ЛИЧНЫЕ КАЧЕСТВА И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЦЕННОСТЕЙ

*Рустамов Рамз Ризокулович, доцент Каршинского
государственного технического университета*

Annotatsiya: *Muallif mazkur maqolada bugungi kunda jamiyatda mavjud bo‘lgan ma’naviy targ‘ibot sistemasini kishilarda gumanistik fazilatlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirishga ulkan hissa qo‘shayotganligi, ayni paytda uning bilan bog‘liq turkum muammolarning saqlanib qolayotgani, buning natijasida jamiyatda fazilatlar va qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatiga e’tiborsiz bo‘lgan, uni tugal tushunmaydigan, fazilat va qadriyatlarning shakllanishi sekinlashgan yoxud to‘xtagan kishilarning yuzaga kelayotganligini bayon qiladi va bir qator taklif va tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *targ‘ibot, ma’naviy targ‘ibot, zamonaviy targ‘ibot, qadriyatlар, fazilatlar, ma’naviyat, ma’rifat.*

Abstract: *In this article, the author explains that the system of spiritual propaganda existing in society today makes a great contribution to the formation of humanistic virtues and feelings of loyalty to national and universal values, while at the same time a number of problems associated with it persist, as a result of which there are people in society who are indifferent to the social significance of virtues and values, do not fully understand them, and whose formation of virtues and values has slowed down or stopped, and gives a number of suggestions and recommendations.*

Keywords: *propaganda, spiritual propaganda, modern propaganda, values, virtues, spirituality, enlightenment.*

Аннотация: В данной статье автор поясняет, что существующая сегодня в обществе система духовной пропаганды вносит большой вклад в формирование гуманистических добродетелей и чувства преданности национальным и общечеловеческим ценностям, но вместе с тем сохраняется ряд проблем, связанных с ней, в результате чего в обществе есть люди, которые равнодушны к социальной значимости добродетелей и ценностей, не понимают их в полной мере, и формирование добродетелей и ценностей у которых замедлилось или прекратилось, и вносит ряд предложений и рекомендаций.

Ключевые слова: пропаганда, духовная пропаганда, современная пропаганда, ценности, добродетели, духовность, просвещение.

KIRISH. Zamonaviy targ‘ibotning yana bir ko‘rinishi – ma’naviy targ‘ibot barcha davrlarda kishilarning turfa fazilatlari va qadriyatlari dunyosiga salmoqli ta’sir o‘tkazib kelgan. Har bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum muayyan tipdagi inson shaxsini shakllantirishni taqozo qilgan. Ma’naviy targ‘ibot esa unga taqdim qilingan ana shu tipga xos bo‘lgan fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qilgan. Shu boisdan bir davrda

insonning bir turdagи fazilat va qadriyatlarni, boshqa davrda ularning boshqa turlarini kamol toptirish ma’naviy targ‘ibot subyektlarining diqqat markazida turgan. Boz ustiga, ma’naviy targ‘ibot turli davrlarda targ‘ib qilinayotgan fazilatlar va qadriyatlarni turli mazmun bilan to‘ldirib kelgan.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA
METODOLOGIYA.** Avvalo, “fazilat” va “qadriyat” tushunchalari definitsiyasiga bir qadar

<https://orcid.org/0009-0001-7495-2384>
e-mail:
ramz.rustamov.81@mail.ru

to‘xtalib o‘tsak. Shaxs ma’naviy dunyosining shakllanishi jarayoniga bag‘ishlangan ilmiy manbalarda “fazilat” tushunchasi faol qo‘llaniladi. Biroq manbalarda uning mufassal ta’rifini uchratish qiyin. Shuni inobatga olgan holda ushbu tushuncha mazmunini mustaqil belgilab olishga harakat qilamiz. Ma’lumki, falsafada insonni o‘ziga xos fenomen sifatida tavsiflashda uch asosiy: “individ”, “individuallik” va “shaxs” tushunchalari ishlatiladi. Bunda individ – inson zotining alohida olingan vakilini ifodalovchi, individuallik – ana shu alohida vakilning boshqalarda takrorlanmaydigan o‘ziga xos jihatlarini anglatuvchi tushunchadir. “Shaxs” esa insonning mustaqilligi darajasini tavsiflovchi kategoriya hisoblanadi¹. Individ va individuallikning ham, shaxsning ham o‘z sifatiy ko‘rsatkichlari, bu ko‘rsatkichlarni ifodalovchi tushunchalar mavjud. Masalan, inson individualligi uning turfa xislatlariga qarab aniqlanadi, uning shaxsi esa fazilatlarining shakllanganligi darajasiga qarab belgilanadi. Shunday qilib, fazilat – inson shaxsining kamoloti sifati va darajasini, mustaqilligi me’yorini ifodalovchi tushunchadir. Inson ma’naviy dunyosining turfa aqliy, axloqiy, huquqiy va boshqa jihatlariga monand ravishda uning fazilatlari ham aqliy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, kasbiy va boshqalarga tasniflanadi.

“Fazilat” tushunchasidan farqli o‘laroq “qadriyat” falsafada bisyor ta’riflangan kategoriylar turkumiga kiradi. Shu sababdan bu o‘rinda uning umume’tirof etilgan ta’rifini keltirish bilan cheklanamiz. “Qadriyat – voqelikdag‘i muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushunchadir”². Qadriyat alohida shaxsga, ma’lum ijtimoiy guruhga yoki butun jamiyatga daxldor bo‘lishi mumkin. Bizning mulohazalarimizda shaxs qadriyatlarini diqqat markazida turibdi.

Insonning har qanday fazilati va qadriyati ikki buyuk omil – ta’lim va tarbiya mahsulidir. Darhaqiqat, shaxs ijtimoiy fazilatlari va qadriyatlarini shakllantirishda ta’lim beqiyos ahamiyatga ega. Chunki u tahsil oluvchiga nafaqat

bilim berish, balki uning tanqidiy tafakkuri, tuyg‘u va kechinmalari, ijtimoiy mas’uliyatini yuksaltirish omili hamdir. Ta’lim insonning xulq-atvorini qaror toptiradi, shaxsiy qarashlari va e’tiqod uchun zamin hozirlaydi, uni shaxslararo munosabatlarga tayyorlaydi, o‘zining jamiyat oldidagi majburiyatlarini ado etishga shaylaydi. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida inson turli xalqlarning tarixi, madaniyati, falsafasi bilan tanisharkan, insoniyat tarixiy tajribasining turli jihatlarini o‘zlashtira boradi. Bularning barchasi insonda muayyan fazilatlarning shakllana borishiga mustahkam poydevor yaratadi³. Biroq shaxs fazilatlari va qadriyatlarining shakllanishi jarayoni ta’limning sifati masalalariga borib taqalishini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Faqat sifatan takomil topgan, mazmunan boy ta’limgina insonning e’tiborga sazovor fazilatlari va qadriyatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Sifatsiz, mazmunan sayoz ta’lim bunday ahamiyatli va muhim ijtimoiy vazifani bajara olmaydi.

Shaxs ijtimoiy fazilatlari va qadriyatlarini shakllantirishda tarbiyaning ham o‘z o‘rnii va roli mavjud. Shaxsning nafaqat axloqiy, estetik va mehnatga doir, balki uning huquqiy, siyosiy, iqtisod va boshqa fazilat va qadriyatlarini ham tarbiya ta’sirida sayqal topadi. Oilada, ta’lim dargohida, mehnat jamoasida, mahallada olib borilgan tarbiyaviy ishlar halollik, mehribonlik, hamdardlik, mas’uliyatlilik va hamkorlik kabi ko‘plab ahamiyatli fazilatlarni, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, tenglik,adolat kabi qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Faqat shunday fazilat va qadriyatlarini shakllantirish orqali inson shaxsi kamolotini, shuningdek, jamiyat barqarorligini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Ayni paytda inson fazilatlari va qadriyatlarining shakllanishi jarayoniga ma’naviy targ‘ibot ham jiddiy ta’sir ko‘rsatishga qodir. Jamiyatda qaysi fazilat va qadriyat keng targ‘ib va tashviq etilsa, uning a’zolari o‘sha fazilat va qadriyatni qadrlay boshlaydilar, ular sari intilishni kanda qilmaydilar. Masalan, o‘zbek jamiyatida azal-azaldan turli ma’rifiy, badiiy va diniy manbalar, suhabatlar va nasihatlar vositasida mehribonlik, oqibatlilik, halollik kabi fazilatlar, hamjihatlik,

¹ Qurang: Введение в философию. Т.2. // Под ред. Фролова И.Т.- М.:Республика, 2003.

² Qadriyat.// Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.2.- Т.: O‘zb.fayl. milliy jam. nashr., 2019.- B.646.

³ Qurang: Богуненко С.Б. Роль образования в развитии современной личности.// Вестник Донецкого педагогического института, 2017, №2.- 254-264-с.

hamkorlik, o‘zaro yordam kabi qadriyatlar keng targ‘ib qilib kelingan. Xuddi shuning uchun ham o‘zbek kishisi mazkur fazilat va qadriyatlarni inson ma’naviyatining eng ahamiyatli elementlari sifatida baholaydi. Bundan tashqari, tarixiy taraqqiyotning tashvishli pallalarida ma’naviy targ‘ibot u yoki bu fazilat yoxud qadriyatning yorqin namoyon bo‘lishiga zamin yaratishi mumkin. Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida ommaviy axborot vositalari orqali davr kishilardan Vatan manfaatlari yo‘lida jipslashishni talab qilayotgani, insonparvar va o‘zaro mehribon bo‘lishni taqozo qilayotgani faol targ‘ib etildi. Aynan shu sababdan o‘sha davr kishilar faoliyatida insonparvarlik, mehribonlik, yordamga shaylik yorqin ko‘zga tashlandi. Jumladan, “Shomahmudovlar oilasi insonparvarlikning yuksak namunasini ko‘rsatgan oila sifatida tarixda qoldi. Shoahmad ota va Bahri aya turli millat vakillari bo‘lgan 13 o‘g‘il-qizni va urushdan so‘ng yana 3 bolani o‘z tarbiyalariga olishgan. Bular Habiba, Vova, Shuhrat – rus, Hamidulla – ukrain, Rafiq, Rahmatulla – tatar, Xolida – moldavan, Samug‘ – chuvash, Yo‘ldosh, Ergash – yahudiy, Halima – qozoq, Qoravoy, Ne’mat, Muazzam, Hakima, Ulug‘bek – o‘zbek”⁴.

Bundan ko‘rinadiki, ma’naviy targ‘ibot ham ta’lim va tarbiya kabi kishilar fazilat va qadriyatlarning shakllanishi jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatishga qodir omillar turkumiga kiradi. Lekin uning shaxs fazilatlari va qadriyatlari olamiga ta’siri mazmuni va xarakteri davr xususiyatlari, mayjud ijtimoiy buyurtma xususiyatlaridan kelib chiqadi. Fikrimizni sovet davridagi ma’naviy targ‘ibotning o‘ziga xos xususiyatlari va oqibatlari haqidagi mulohazalar bilan davom ettiramiz.

Sovet davrida turli millat va elat vakillaridan sovet kishisini voyaga yetkazish maqsadi diqqat markazida turdi. Sovet faylasuflari va mafkurachilari asarlarida “sovet kishisi” kapitalistik jamiyat sharoitida umrguzaronlik qilayotgan insondan tubdan farq qiluvchi yangi tipdagi shaxs ekanligi tavsiflab berildi. Bunday urinishlarni, masalan, professor G.L.Smirnovning “Sovet kishisi: sotsialistik tipdagi shaxsning shakllanishi” nomli monografiyasida ko‘rish mumkin⁵. Mazkur asarlarda

sovetskiy kommunistik mafkuraga sodiq, partiya va davlat ishlariga fidoyi, jamoatchilik ruhida tarbiyalangan, mehnatkash inson tarzida tasvirlanadi⁶. Sovet kishisining asosiy fazilat, xislat va qadriyatlari majmui esa kommunistik axloq tamoyillarini o‘zida mujassam qilgan va keyinchalik KPSSning uchinchi dasturi matniga kiritilgan “Kommunizm quruvchisining axloqiy kodeksida” mufassal ifodalab berildi⁷. Unda ko‘rsatilishicha, kommunistik ruhda tarbiyalagan sovet kishisi quyidagi fazilat, xislat va qadriyatlarga ega bo‘lmog‘i darkor: 1)kommunizm g‘oyalariga sodiqlik, sotsialistik Vatanga muhabbat; 2)jamiyat manfaatlari yo‘lida mehnat qilishga shaylik (“ishlamagan tishlamaydi” tamoyili); 3)jamoat mulkini asrash va ko‘paytirishga g‘amxo‘rlik; 4)ijtimoiy mas’uliyat ruhi; 5)jamoaviylik va do‘stona o‘zaro yordam ruhiyati; 6)o‘zaro hurmat va insonparvar munosabatlarga moyillik (“inson insonga do‘sit, birodar va og‘a” tamoyili); 7)halollik va haqgo‘ylik, axloqiy poklik va kamtarlik; 8)farzandlar tarbiyasida mas’uliyatlilik; 9)ijtimoiy illatlarga toqatsizlik; 10)xalqlar do‘sligi tamoyiliga sodiqlik; 11)kommunizm dushmanlariga toqatsizlik; 12)barcha mamlakatlarning mehnatkashlari bilan birdamlik⁸. Sovet kishisining mazkur hujjatda tasvirlab berilgan obrazi nafaqat ta’lim va tarbiya tizimi, balki ma’naviy targ‘ibot sistemasi uchun ham o‘ziga xos ijtimoiy vazifasini o‘tadi.

Sovet davrida sovet kishisiga xos bo‘lgan ijtimoiy fazilatlar va qadriyatlarning faol targ‘ib va tashviq qilinishi kishilar ma’naviy olamida murakkab va ziddiyatli oqibatlarga olib keldi. Jumladan, bir tomonidan, davr kishilarida jamoaviylik va o‘zaro yordam tuyg‘ulari qaror topdi, ijtimoiy mas’uliyat hissi, mehnatsevarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllandi. Bu tuyg‘ular va fazilatlarning shakllanishi ikkinchi jahon urushi oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga, keyinchalik sanoat ishlab chiqarishini takomillashtirish ishlariga, ayniqsa BAM kabi qurilishlarga, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirishga kishilarni safarbar qilishni yengillashtirdi. Shu boisdan sovet ma’naviy targ‘iboti mazmuni va xarakteriga baho berayotganda mazkur holatlar ham inobatga

⁴ Rahmatova D. Shomahmudovlar oilasidan kimlar hayot?// sputniknews.uz, 2017, 8-may.

⁵ Qarang: Смирнов Г.Л. Советский человек: формирование социалистического типа личности. Изд. 3-е, доп.- М.: Политиздат, 1980.

⁶ Qarang: o‘sha manba.

⁷ Qarang: Моральный облик строителя коммунизма. — М.: [Нauка](#), 1964.

⁸ Qarang: o‘sha manba.

olinmog'i darkor. Lekin, ikkinchi tomondan, nuqul jamoaviylik ruhiyatini targ'ib qilishga urg'u berilishi, kishilarni yagona g'oyaga bo'ysundirishga bo'lgan intilishlar, ayni paytda shaxsdagi individual xususiyatlarning inkor qilinishi jamiyatda konformizmni, ya'ni moslashuvchanlik kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Konformizm, E.Fromm ta'biri bilan aytganda, aksariyat jamiyat a'zolarining himoya qobig'iga aylanib qoldi⁹. "Sovet kishisi" idealiga kiritilgan kommunistik fazilat va qadriyatlarning faol targ'ib qilinishi, boshqalarining esa namoyishkorona e'tibordan chetda qoldirilishi ko'plab axloqiy tamoyillarning qadrsizlanishiga sabab bo'ldi. Shaxsiy mas'uliyatning jamoaviy mas'uliyat bilan almashtirilishi, oddiy insoniy fazilatlar o'rniga mafkura talablari bilan sug'orilgan soxta fazilatlarning ulug'lanishi e'tirof etilayotgan fazilat va qadriyatlар bilan real xulq-atvor o'rtasida ziddiyatlarni yuzaga keltirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Mustaqillik yillarda shaxsning sotsialistik tipini shakllantirish vazifasi o'z dolzarbligini yo'qotdi. Kun tartibiga gumanistik fazilatlarni o'zida mujassam qilgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsnim kamol toptirish masalasi qo'yildi. Mamlakatda mustaqillik yillarda qaror topgan ma'naviy targ'ibot tizimi ana shu maqsadga yo'naltirildi. Avvalo mazkur tizimning uzoq muddat davomida shakllanib, davr nafasiga monand ravishda takomillashib borganini, uni yuksaltirish masalalari mamlakat rahbariyatining muttasil diqqat markazida turganini qayd qilmoq darkor. Diyorimizda ma'naviy targ'ibot sistemasining shakllanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-aprelda qabul qilingan "Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi" Farmoni turtki berdi¹⁰. Tez orada uni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" Qarori qabul qilindi¹¹. Ushbu

hujjatlarning sharofati bilan mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, xususan ma'naviy targ'ibot bilan shug'ullanuvchi, o'zining mustahkam intellektual va moddiy-texnika resursiga ega bo'lган ijtimoiy institut shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-sentyabrda qabul qilingan "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi" farmonida¹² ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning davlat siyosati ustuvor yo'naliшlaridan biri sifatida e'tirof etilishi mamlakatdagi ma'naviy targ'ibot ishlarini yangi darajaga ko'tardi. Farmon nafaqat ma'naviy targ'ibot sistemasining takomillashishiga, balki mamlakat ma'naviy hayotining ham jonlanishiga sabab bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti prinsiplari joriy etilayotgan bir paytda ma'naviyat bilan bog'liq muammolarni ikkinchi darajali masala sifatida talqin qilish, ma'naviy targ'ibot ishlariga panja orasidan qarash, bu ishlarni "qoldiq prinsipi" asosida mablag' bilan ta'minlash kayfiyatiga butkul barham berildi.

Aytish joizki, mustaqillik yillarda shakllangan o'ziga xos institutsional tuzilma vositasida amalga oshirilgan ma'naviy targ'ibot jiddiy yutuqlarga erishdi. Xususan, ijtimoiy ahamiyatga molik gumanistik fazilatlarning keng targ'ib qilinishi kishilardagi ko'plab fazilatlar mazmunini o'zgartirdi. Chunonchi, birinchidan, shaxs aqliy fazilatlari mazmuni o'zgardi. Masalan, sovet davrida aqliy zukkolik deganda kommunistik mafkura g'oyalarini o'zlashtirish qobiliyati nazarda tutilgan bo'lsa, mustaqillik yillarda u "shaxsning tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan turli voqeа va hodisalarni kuzatish, uning mohiyatini ilg'ab olish, sabablarini tushunish, oqibatlarini oldindan ko'ra bilib, bundan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatini, shuningdek fahm-farosati, zehni, ziyrakligining rivojlanganligini"¹³ anglata boshladи. Ikkinchidan, shaxs axloqiy fazilatlari mazmuni o'zgardi. Masalan, sovet davrida halollik deganda sotsialistik mulkchilikni

⁹ Qarang: [Фромм Э.](#) Механизмы "бегства"// [Бегство от свободы](#).- М.:ACT,2011.

¹⁰ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1994, №6.

¹¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining

faoliyatini tashkil etish to'g'risida"// buxgalter.uz/doc?id=352808.

¹² Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida// lex.uz/docs/635435.

¹³ Choriyev S.A. Siyosiy yetuk shaxsni shakllantirish muammolari: Fals.f.dokt. ilmiy dar. olish uchun yozilgan diss.-T.:O'zMU, 2005.- B.24.

asrab-avaylash istagi tushunilgan bo'lsa, mustaqillik yillarda u shaxsning pokligi, vijdonliligi, to'g'riso'zligini ifodalaydigan bo'ldi.

Uchinchidan, shaxs huquqiy fazilatları mazmuni o'zgardi. Masalan, sovet davrida huquqiy komillik deganda sotsialistik jamiyat qonunchiligini o'zlashtirganlik nazarda tutilgan bo'lsa, mustaqillik yillarda u o'z huquqiy maqomini bilishni, huquqiy bilimlarni o'zlashtirganlikni, inson haq-huquqlariga axloq nuqtayi-nazaridan baho bera olishni anglatla boshladı. To'rtinchidan, shaxs mehnat fazilatları mazmuni o'zgardi. Masalan, sovet davrida mehnatsevarlik deganda davlat manfaatlari yo'lidagi fidoyilik tushunilgan bo'lsa, mustaqillik yillarda u o'z imkoniyatlarini realizatsiya qilishga intilishni, tashabbuskorlikni anglatadigan bo'ldi.

Mustaqillik yillarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning keng targ'ib qilinishi kishilar qadriyatlari dunyosi mazmunini o'zgartirdi. Xususan, birinchidan, sovet davrida salomatlik deganda davlat tibbiyot tizimi yordamida ta'minlanadigan ijtimoiy ne'mat tushunilgan bo'lsa, mustaqillik yillarda u shaxsiy mas'uliyat sifatida tavslanadigan bo'ldi. Ikkinchidan, sovet davrida ma'rifatilik deganda kommunistik qadriyatlarni o'zlashtirilganlik darajasi anglangan bo'lsa, mustaqillik yillarda u milliy va umuminsoniy qadriyatlardan voqiflikni ifodalaydigan bo'ldi. Uchinchidan, sovet davrida mehnat davlat korxonasi dagi faoliyatni ifodalovchi qadriyat bo'lgan bo'lsa, mustaqillik yillarda uning mazmuni shaxsiy tashabbus va tadbirkorlik bilan bog'liq elementlar evaziga boyidi. To'rtinchidan, sovet davrida erkinlik deganda partiya va davlat tomonidan belgilab berilgan chegaralar miqyosidagi tanlovnı anglatgan bo'lsa, mustaqillik yillarda u ijtimoiy adolat shaklini ifodalaydigan bo'ldi. Besinchidan, sovet davrida kishilarning milliy qadriyatlardan xabardorligiga darz ketgan, umuminsoniy qadriyatlarni haqidagi tasavvurlari sayozlashgan bo'lsa, mustaqillik yillarda ularning milliy qadriyatlarga moyilligi kuchaydi, umuminsoniy qadriyatlardan voqifligi darajasi esa sezilarli darajada kuchaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda jamiyatda mavjud bo'lgan ma'naviy targ'ibot sistemasi kishilarda gumanistik fazilatlarni, milliy va umuminsoniy qadri-

yatlarga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirishga ulkan hissa qo'shdi. Ayni paytda uning bilan bog'liq turkum muammolarning saqlanib qolayotgani, buning natijasida jamiyatda fazilatlar va qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatiga e'tiborsiz bo'lgan, uni tugal tushunmaydigan, fazilat va qadriyatlarning shakllanishi sekinlashgan yoxud to'xtagan kishilarning yuzaga kelayotganiga ham urg'u bermoq darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Введение в философию. Т.2. // Под ред. Фролова И.Т.- М.:Республика, 2003.
2. Qadriyat // Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.2.- T.: O'zb.fayl. milliy jam. nashr., 2019.- B.646.
3. Богуненко С.Б. Роль образования в развитии современной личности. Вестник Донецкого педагогического института, 2017, №2.
4. Кузнецов Д.А. О роли воспитания в становлении растущей личности // Мир науки, культуры, образования, 2017, №2.- 40-42-с.
5. Rahmatova D. Shomahmudovlar oilasidan kimlar hayot?// sputniknews.uz, 2017, 8 may.
6. Смирнов Г.Л. Советский человек: формирование социалистического типа личности. Изд. 3-е, доп.- М.: Политиздат, 1980.
7. Моральный облик строителя коммунизма. — М.: Наука, 1964.
8. Фромм, Э. Механизмы "бегства"// Бегство от свободы.- М.:ACT, 2011.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1994, №6.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining faoliyatini tashkil etish to'g'risida
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida // lex.uz/docs/635435.
12. Choriyev S.A. Siyosiy yetuk shaxsni shakllantirish muammolari: Fals.f.dokt. ilmiy dar. olish uchun yoz. diss.T.:O'zMU, 2005. - B.24.